

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI**

**НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ СОЦИАЛЬНЫХ РАБОТНИКОВ**

**THE NEED TO DEVELOP PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SOCIAL
WORKERS**

Mirzajonov Jamshid Qahorjon o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlan-tirishning nazariy-metodologik asoslari, ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlan-tirishning texnologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlan-tirish zarurati tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье изучаются теоретические и методологические основы развития профессиональной компетентности будущих социальных работников, технологические основы развития профессиональной компетентности будущих социальных работников на основе передового зарубежного опыта. Также проанализированы необходимость развития профессиональной компетентности будущих социальных работников.

Abstract

In this article, the theoretical and methodological foundations of developing the professional competence of future social workers, the technological foundations of developing the professional competence of future social workers based on advanced foreign experiences are studied. The need to develop the professional competence of future social workers was also analyzed.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, tayyorlash, komponent, empirik, pedagogik xususiyat, metodologiya, kompetensiya, xorijiy tajriba, kasbiy, ijtimoiy ish, tendensiya, texnologik.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, обучение, компонент, эмпирическая, педагогическая особенность, методология, компетентность, зарубежный опыт, профессиональная, социальная работа, тенденция, технологический.

Key words: professional activity, training, component, empirical, pedagogical feature, methodology, competence, foreign experience, professional, social work, tendency, technological.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ijtimoiy faoliyat yuksak intellekt, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy ong va siyosiy madaniyat asosida shakllanadi. Shuningdek, ijtimoiy faoliyatni rivojlan-tirishda so'z erkinligi qadrldanadigan, qonun usuvor bo'lgan va fikrlar xilma-xilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur. Zero, «keyingi paytda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgani, o'g'il-qizlarimizning ijtimoiy-faolligi, vatan va xalq taqdiriga dahldorlik hissini kuchayib borayotgani, zamonaviy, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etishda navqiron avlodimizni munosib ishtirok etayotgani» ham jamiyatdagi fuqarolik madaniyatini shakllanayotganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda bo'lajak kadrlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlan-tirish masalalari R.Jo'rayev, M.Inomova, O.Musurmonova, S.Nishonova, R.Safarova, M.Quronov, A.Choriyev,

ILMIY AXBOROT

J.G'.Yo'ldoshev, X.Ibragimov, B.X.Rahimov, M.H.Mahmudov, R.SH.Ahliddinov, R.H.Jo'rayev, Sh.Q.Mardonov, O'.A.Jumanazarov, E.Sattorovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

MDH va xorijlik olimlardan O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, S.V.Vasekin, O.B.Yepisheva, G.A.Monaxov, Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriembar Jeron, Leyle. M.Spencer tomonidan bo'lajak kadrlarning kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy ishdagi tadqiqotlar ko'pgina muammolarga nisbatan munosabatimizni o'zgartirishga, stereotiplarning mohiyati va ahamiyatini tushunishimizga yordam beradi. Masalan, ko'pgina uysiz insonlar – bu ichkilikbozlikka mukkasidan ketgan aynan erkaklar yoki narkotik vositalarga ruju qo'yganlar, degan yanglish fikrga ega bo'lish mumkin. Biroq zamonaviy tadqiqotlar, uysiz qolgan insonlar orasida farzandlari bor ayollarning va OITS tashxisi qo'yilgan insonlarning ko'payib borayotganini tasdiqlamoqda. Bitta muammoning turli sohalarini tushunish tegishli xizmatlarning yaratilishi va ijtimoiy ko'mak zarur bo'lgan u yoki bu guruh insonlarining ehtiyojlariga muvofiq keladigan yordamning ko'rsatilishiga to'g'ri yondoshish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy ishdagi professionalizm masalasi o'ziga ijtimoiy xodimi va mijozning o'zaro harakati masalasini ham kiritadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, ijtimoiy xizmat qilishning subyektlari va obyektlari o'ttasida ijtimoiy muloqot tarixiy jarayonlardan chetda, konkret ijtimoiy iqtisodiy voqelikdan chetda bo'limgan va bo'lishi ham mumkin emas. Ijtimoiy ish xodimi va mijoz muloqoti hamda o'zaro harakatining mohiyatini axborot instrumental, avvalo jonli muloqot jarayonida ochiladi. Ijtimoiy ish xodimi va mijozning muloqoti tipologiyasi o'ziga quyidagi komponentlarni kiritishi mumkin: ijtimoiy xizmat sharoitidagi muloqot, yashash joyidagi muloqot, mijozning uyidagi, qishloq yoki shahar jamoasidagi, ishlab chiqarishdagi, mehnat jamoasidagi muloqotlar, muloqotning shaxsiy (avvalo oiladagi) tipi.

Bunday tipologiyaning asosi kishilarning psixologik kontakti (aloqasi)dir. Ijtimoiy ish xodimi va mijozning ijtimoiy o'zaro harakati mijozning psixologik kontakt (aloqa)lari harakterini hisobga olgan holda vujudga keladi. Biroq, bu ijtimoiy ishda hisobga olinadigan yagona talab emas. Agar ijtimoiy ish – bu professional harakat ekan, unda biz ijtimoiy o'zaro harakat bir qator mijozlar va xodimlarning, mijozlar va uning oila a'zolarining intilishlarini, mijozning o'zini va ijtimoiy xizmat yoki ijtimoiy himoya qilish organlarining, kommunal harakat organlari va boshqalarning intilishlarini, harakatlarini birlashtirishni nazarda tutuvchi muloqotning funksional – boshqaruvi tipini hisobga olish asosida tashkil etilishi va qurilishi mumkin deb taxmin qilishga xaqlimiz1. Shunga ko'ra, ijtimoiy ish xodimi va mijozning muloqotida hamda o'zaro harakatida muloqotning shaxsiy, emotsiyal, psixologik, funksional boshqaruvi tipi hisobga olinadi. Ijtimoiy ishda bu tipologiyani yoki muloqot turlari tasnifini aniqlab olish, ularning mijozga ijtimoiy xizmat ko'rsatish va yordam berish jarayonidagi rolini tushunish juda muhimdir, lekin asosiy emas. Muhibi, insonlar muloqotlarida strukturaviy – tasnifiy jihatlardan foydalangan holda ijtimoiy ishda individual muloqotni ham, kishilar guruhlari bilan muloqotda ham rasmiy va norasmiy o'zaro harakatni qo'llash kerak. Ijtimoiy ish xodimi mijoz kategoriyasi va uning muammolarini aniqlab, u bilan muloqotga kirishish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi.

Xodim va mijoz ijtimoiy o'zaro harakatining ijtimoiy tahlili bu jarayonda bir tomonidan, moddiy va ma'nnaviy boyliklar bilan almashinuv ro'y berishini, ikkinchi tomonidan, mijozning ichki kuchlari ro'yobga chiqishini tushunishga imkon beradi. Professional ijtimoiy ish xodimi bu ikki komponentni birlashtiradi, jonlantiradi va mijozga uning uchun asosiy bo'lgan vazifani bajarishda (masalan, uning oila a'zolari bilan yoki jamiyat a'zolari bilan munosabatlarini uyg'unlashtiradi) yordam beradi. Ijtimoiy ish xizmatning muloqot tipi, qoida bo'yicha xayoliy emas, balki ijtimoiy konkret vaziyatlarda o'z muammolari bilan tushib qolgan real mijozining ijtimoiy refleksiyasining aksi bo'lib gavdalanadi.

Ijtimoiy ish xodimi va mijoz o'zaro harakatining xarakteri ko'p jihatdan mutaxassisning ijtimoiy ish metodlari va texnologiyalarni qay darajada chuqur egallaganligi bilan ham belgilanadi. Professional ijtimoiy ish xodimi noprofessionaldan farq qilgan holda doim ijtimoiy diagnostika, ijtimoiy profilaktika yoki ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy patronaj yoki ijtimoiy terapiya sohasidagi mutaxassislardan tavsiyalariga binoan mijoz bilan o'zaro harakatda bo'ladi. Professional har qanday vaziyatda o'z mijizi xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy ishning metodlarini qo'llaydi1.

Ijtimoiy aloqa – bu ijtimoiy ish xodimlarining, mijozlarning, turli tipdagи boshqa fuqarolar yoki oilalar, jamoalar, ijtimoiy guruhlarning ular ijtimoiy manfaatlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish jarayonida bir-biriga ta'sir etish jarayoni. Ijtimoiy ish xodimi va mijoz ijtimoiy o'zaro aloqasining texnologiyasi mijozning qiyinchiliklarini o'z vaqtida hal etishga, ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirish maqsadida ro'y beruvchi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga, ijtimoiy keskinlikni yumshatishga, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni muvofiqlashtirishga (korreksiyalash) da'vat etilgan.

O'zaro aloqa qoidaga ko'ra, xodimlarning professionalizmi va axloqiy sifatlariga, aholini ijtimoiy himoyalash tizimining imkoniyatlariga, davlat va mahalliy boshqaruv organlarining ijtimoiy – iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq.

Ijtimoiy xodim ijtimoiy fanlarning turli sohalaridagi zamonaviy bilimlarnigina egallab qolmasdan, balki ijtimoiy ishning mustahkam ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. U mijozning muammolari mohiyatini anglab yetishishi, unga quloq sola olishi, bu muammolarni to'liq hal etgunga qadar o'zaro ta'sir aloqalarni yaratish va qo'llab-quvvatlash, hayotning mushkul vaziyatlarini bartaraf yetishga qaratilgan ijtimoiy harakatlarning faol jarayoniga jalb yetish, huquqiy axborot va boshqa yechimlarni topish, qonun tomonidan belgilangan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishi zarur.

Ijtimoiy aloqa amaldagi qonun asosida tuziladi, ko'p jihatdan uning xarakteri professional faoliyatning axloqiy – etik prinsiplari va meyorlari bilan belgilanadi.

Shunga ko'ra professional ijtimoiy ishning shakllanishida 1994 yil oktabrida ijtimoiy xodimlarning Xalqaro federatsiyasida qabul qilingan hujjatlar katta ahamiyaiga ega, bular: «Ijtimoiy ish axloqiy – etik prinsiplarining Xalqaro deklaratsiyasi» va «Ijtimoiy ish xodimlarining Xalqaro axloqiy – etik standartlari»dir. Ijtimoiy ish xodimi va mijozning munosabati ya'ni o'zaro aloqasi quyidagi prinsiplarni hisobga olgan holda vujudga keladi: – har bir inson qadrlidir, buni inobatga olish va hurmat qilish kerak; – har bir inson o'zini namoyon qilish huquqiga ega; – ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiyadolat prinsiplari tarafdori bo'lishi; – ijtimoiy xodimlar o'zlarining barcha bilimlari va ko'nikmalarini alohida kishilar, guruhlar, jamoalarga, ularning rivojlanishida, shaxs va ijtimoiy muhit o'rtaсидagi ziddiyatlarni hal yetishda yordam ko'rsatish uchun qo'llaydilar; – ijtimoiy xodimlar ularga yordam va maslahat so'rab murojaat etgan har bir insonga uning jinsidan, yoshidan, jismoniy va aqliy nuqsoni mavjudligidan, ijtimoiy va irliq kelib chiqishidan, dini, tili, siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar yordam beradilar; – ijtimoiy xodimlar BMTning inson huquqi Deklaratsiyasi va bu Deklaratsiya asosida tuzilgan boshqa xalqaro konvensiyalarga riosa qilgan holda individ va guruhlarning asosiy huquqlarini hurmat qiladilar; – ijtimoiy xodimlar shaxs daxlsizligi, o'z ishida axborotdan foydalanish javobgarligi va sir tutish prinsiplariga riosa qiladilar. Ijtimoiy xodimlar, o'rinni maxfiylikka, hatto mamlakat qonunlari bu talablari bilan zid kelib qolsa ham riosa qiladilar; – ijtimoiy xodimlar o'z mijozlari bilan yaqin hamkorlikda ularning foydasi uchun, lekin boshqalarga ziyon keltirmasdan ishlaydilar; – ijtimoiy ish terrorizm, kamsitishga qaratilgan boshqa harakatlarni qo'llovchi individlar, guruhlar, hokimiyat strukturalarining bevosita yoki bilvosita madadiga qarshidir1.

Mijozlar bilan o'zaro munosabatlar: 1) mijozlarga nisbatan majburiyatlaringizni birinchi o'ringa qo'ying, biroq boshqa odamlarning axloqiy jihatlarini ham hurmat qiling; 2) mijozning o'zaro ishonch, sir va konfidensiallikka, axborotdan mas'uliyatli foydalanishga bo'lgan huquqlarini himoya qiling. Axborot to'plash va uni boshqa shaxslarga berish faqatgina mijozning manfaatlari yo'lida amalga oshiriladigan kasbiy faoliyat doirasida yuz berishi mumkin, bu harakatlarning zarurligi haqida mijoz oldindan xabardor qilmay turib va uning roziligidan boshqalarga berilmaydi. Bundan mijoz o'z hatti-harakatlari uchun mas'ul bo'la olmaydigan va bu harakatlar boshqa shaxslar uchun jiddiy xavf tug'diradigan holatlar mustasno. Mijoz o'z haqida ijtimoiy xodimda mavjud bo'lgan har qanday axborot bilan tanishish huquqiga ega; 3) mijozning shaxsiy intilishlari, tashabbuslari va xususiyatlarini qadrlang va hurmat qiling. Agentlik va ijtimoiy muhit doirasida ijtimoiy xodim mijozga o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatli bo'lishda ko'maklashadi. Biror sababga ko'ra mana shu darajada kasbiy yordam ko'rsatilishini imkoni bo'lmasa, bu haqda mijozga xabar beriladi va u o'z bilganicha harakat qiladi; 4) mijozga (alohida odamga, guruhga, jamoaga, jamiyatga) o'zini namoyon qilishi va shaxsiy salohiyatini maksimal rivojlantirishda yordam bering, shu bilan birga boshqa odamlarning ham huquqlarini mazkur darajada saqlang. Mijozga xizmat ko'rsatish asosida

ILMIY AXBOROT

uning mutaxassis bilan muloqotlarida o'zining qonuniy istaklari va foydasiga erishish uchun foydalanish zarurligini tushuntirish yotadi.

Ma'lumki, ijtimoiy ish kasbiy faoliyatning alohida turi bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning boshqaruvchanligini ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson omili birinchi navbatda e'tibor qaratilayotgan davrda ijtimoiy ish sharafli soha bo'lib qolmoqda, zero uning markazida inson manfaatlariiga qaratilgan kasbiy faoliyat yotadi. Ijtimoiy ish xodimi professiogrammasida ana shu kasbiy faoliyatning umumiy xususiyatlari o'z ifodasini topadi.

XULOSA

Mamlakatimizda qabul qilingan ijtimoiy ish xodimlari professiogrammasida ijtimoiy ish xodimlari uchun qo'yiladigan namunaviy talablarni yuqori darajada anglasa, o'z qobiliyatları, imkoniyatlari va tajribasiga mos tushadigan o'z kasbiy malakasining ma'lum bir variantini shakillantirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan mana shu narsa ijtimoiy ish xodimining o'z kasbiy malakasini vujudga kelтирishning faol subyektiga aylantiradi. Shundan kelib chiqib, u o'zini o'zi boshqarish va tartibga solish, kasbiy o'sish uchun motivatsiyaga ega bo'lishi, prefessionalizmning yuqori darajalariga intilishi kabi sifatlarini shakllantiradi. Umuman shakllanish jarayonining subyektiga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 228
2. Drori G. S. (2003). Science in the Modern World Polity: Institutionalization and Globalization. Stanford: Stanford University. p. 103.
3. Project 211 and 985. China Education Center Ltd: <http://www.chinaeducenter.com/en/cedu/ceduproject211.php>.
4. Международная Ассоциация социального обеспечения. Бюллетьен социальной политики. 2012. С.23
5. Ўразова М.Б. Бўлажак касб таълими педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: дис... пед. фан. док. Автореф. - Т.: 2015. –Б. 79.
6. Усманов С., Усманов У. Глобаллашув ва интеграция шароитларида узлуксиз таълим тизимларидаги инновация жараёнлари//Узлуксиз таълим Ж.- Т.:2015.-№5. –Б.120.
7. Ҳамидов Ж.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш технологияси. Монография.–Т.: "Sano-standart". 2017.- Б. 160.
8. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка компетентностный подход // Высшее образование сегодня.-М., 2004. -№ 8. -С. 26-31.